

**O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQIDA KELISHIK QO'SHIMCHALARINING NOTO'G'RI  
QO'LLANILISHINI BARTARAF ETISH**

Isroilova Nodirabegim Nu'mon qizi

Farg'ona tumani 55-sonli o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilari o'rtasida kelishik shakllarining noto'g'ri qo'llanilishi, bunga sabab bo'luvchi omillar va ularning yechimlari haqida so'z boradi. O'zbek adabiy tili singarmonizmsiz til sanalib, o'zining ko'pgina sheva va dialektlariga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, har xil dialektlarda kelishik qo'shimchalarining turli variantlari uchrashi, ularning xususiyatlari har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli ham ularni adabiy me'yor nuqtayi nazaridan o'rganish tilning noaniq jihatlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini taminlaydi.

**Kalit so'zlar:** nuqt normalari, yozma nutq, adabiy nutq, kelishik qo'shimchalar, kelishik qo'shimchalarining tushib qolishi, sheva, til me'yorlari.

Kelishik qo'shimchalarining noto'g'ri ishlatilishi odatda og'zaki nutqda uchraydi. Ammo shuni ta'kilash kerakki, og'zaki nutqda qotib qoish oqibatida bunday kamchiliklar yozma nutqqa ham ko'chib o'tadi. Bunday muammolarning yechimi topish uchun esa bir nech usullar mavjud: kelishik qo'shimchalarni o'rganish va qanday holatda qo'shimchilar noto'g'ri ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida ot so'z turkumiga xos bo'lgan kelishik kategoriyasining shakliy-qurilish va semantik-stilistik xususiyatlari, ularning o'rinn al mashib qo'llanilishi ba'zi ishlarda ma'lum darajada o'rganilgan. A.G'ulomov, V.V.Reshetov, R.Rasulov, A.Arifov, I.Ziyoyev, T.Inoyatov, M.Mirzayev, A.Rustamov. H.Ne'matov. M.Shoinoyatov. A.Yo'ldoshev, G.Ro'ziyev. A.Ma'rufov, E.G'ulomovlarning tadqiqotlarini buning yaqqol misoli sifatida ko'rsatish mumkin. I.Ziyoyev, H.Ne'matov, M.Iminov ishlari kelishiklar qo'shimchalarining almashinib qo'llanilishi, ularning o'zaro farqlari, uslubiy rangbarangligini o'rganishga bag'ishlangan [5].

Otlarga qo'shilib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lab keladigan qo'shimchalarga kelishik qo'shimchalari deyiladi.

Tilimizda 6 ta kelishik mavjud bo'lib, ulardan beshtasining qo'shimchasi bor: 1) bosh kelishik (-); 2) qaratqich kelishigi (-ning); 3) tushum kelishigi (-ni); 4) jo'naliш kelishigi (-ga, -ka, -qa); 5) o'rinn-payt kelishigi (-da); 6) chiqish kelishigi (-dan). [<https://talaba.su/kelishik-qo-shimchalari/>]

Yozma nutqda kelishik shaklining noto'g'ri qo'llanishi uslubiy g'alizlikni keltirib chiqaradi: Bu faqat senigina emas, mening ham aybim. Keltirilgan ushbu misolda tushum kelishigi shakli no'to'gri qo'llangan.

Qarshida o'qiyman – Qarshiga o'qiyman. Mana shunday xatolar ya'ni o'rinn-payt kelishigi o'rnila jo'naliш kelishigi shaklini ishlatalish ham uslibiy xatolik hisoblanib, ko'pincha og'zaki nutqda shevalarning qotib qolishi bilan tavsiflanadi.

Qaratqich, o'rinn-payt, tushum, jo'naliш kelishigi shakllari ham belgisiz ishlataladi, natijada o'quvchida xatolik sifatida ta'surot uyg'otadi. Misol uchun, qaratqich: Maktab (ning) hovlisi obodonlashtirildi; tushum kelishigi: Bunda bulbul kitob (ni) o'qiydi; jo'naliш: Ertaga mакtab (ga) borasanmi? o'rinn-payt: yer haydasang, kuz (da) hayda.

Kelishiklarning belgisiz qo'llanilishi xato qo'llanishdan farqli ravishda uslubiy g'alizlikni keltirib chiqarmaydi.

Endi esa bu muammolarning kelib chiqishi va yechimini ko'rib chiqsak. Kelishik qo'shimchalarini to'g'ri ishlatalishga o'rgatish grammatik mavzu sifatida 5-6 sinflardan boshlab o'rgatila boshlanadi. Bolalarda aynan to'g'ri, ravon rivojlangan yozma nutq ham aynan mana shu davrda shakllanadi.

Seytlin S.N. bolalar nutqida til me'yorlarini buzilishining uchta asosiy sababini aniqlaydi. Asosiy sabab - "til tizimining bosimi". Bu omilning bolalar nutqiga ta'sirini baholash uchun "til - nutq", "tizim - norma" qarama -qarshiliklariga ishora qilib, umuman nutqni egallash qanday sodir bo'lishini ko'rib chiqish kerak. "Til - abstrakt mavjudot sifatida tushuniladi, uni to'g'ridan -to'g'ri idrok etish mumkin emas. Nutq -bu tilning amalga oshishi, uning nutq harakatlarining umumiyl ifodasi" [10]. Nutqni tilni tushunmasdan, uni ishlab chiqaruvchi maxsus qurilma sifatida o'zlashtirish mumkin emas. Bola nutqdan tilni ajratishga majbur bo'ladi, chunki tilni o'zlashtirishning boshqa usuli yo'q.

"Biroq, bolalar nutqdan (bolalar tili) olgan til kattalarning nutq faolligini boshqaradigan tilga (me'yoriy til) mos kelmaydi". Bolalar tili - normativ tilning umumlashtirilgan va soddallashtirilgan versiyasi. Unda grammatik va leksik hodisalar birlashtirilgan. Buning sababi shundaki, dastlab bolalar tilida tizim va me'yorga bo'linish yo'q. Ma'lumki, me'yor tizimga qaraganda ancha kech assimilyatsiya qilinadi.

Bolalarda nutq xatolarining paydo bo'lishini belgilovchi yana bir omil - bu boshqalarning nutqining ta'siri. Agar undagi adabiy til me'yorlarini buzish hollari bo'lsa, ularni bolalar takrorlashi mumkin. Bu qoidabuzarliklar lug'at, morfologiya, sintaksis, fonetika bilan bog'liq bo'lishi mumkin va odatda xalq tili deb ataladigan alohida turdag'i til elementlari hisoblanadi. Umumiyl nutq - bu bolalar nutqining shakllanishiga ta'sir qiluvchi va juda ko'p sonli xatolarga olib keladigan kuchli salbiy omil.

Bundan tashqari, nutqni yaratish mexanizmining murakkabligi nutq xatolarining paydo bo'lishiga yordam beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Nutq ishlab chiqaruvchining ongida bir nechta murakkab jarayonlar sodir bo'ladi: uzoq muddatli xotirada saqlanadiganlardan sintaktik modelni tanlash, sintaktik modelni to'ldirish uchun so'z boyligini tanlash, kerakli so'z shakllarini tanlash va ularning ma'lum tartibda joylashishi. Bu jarayonlarning barchasi parallel ravishda amalga oshiriladi. Har safar nutq asarining dizayni bo'yicha murakkab, ko'p o'chovli ish bo'ladi. Shu bilan birga, operativ xotira katta rol o'ynaydi, uning asosiy vazifasi allaqachon aytilgan matn qismlarini "saqlash" va hali

aytilmaganlarni kutish dir". Aynan bolalarning operativ xotirasining etarli darajada rivojlanmaganligi ko'pgina nutq xatolarini tushuntiradi.

Cheremisin P.G. o'z asarlarida Seytin S.N. ning fikriga amal qiladi. va "nutq xatolari bunday lingvistik me'yorlarga rioya qilmaslik munosabati bilan vujudga keladi, bunga muvofiq adabiy nutqni yaratish kerak" [11], deb hisoblaydi, ya'ni nutq xatolarining paydo bo'lism sabablari lingvistikdir.

Shunday qilib, uslubiy, lingvistik adabiyotlar tahliliga ko'ra, grammatic xato -adabiy til me'yordan chetga chiqish. Va bolalar nutqining rivojlanishiga boshqalarning nutqi ham, maxsus tashkil etilgan ishlar ham ta'sir qiladi.

Kelishiklarning xato qo'llanilishiga sabab yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bolalarning nutq me'yorlariga amal qilmasligi hamda til unsurlarining yozma nutqqa ko'chishidir.

Ushbu muammolarni yechish uchun ya'ni grammatic xatolar kamroq bo'lishi uchun o'qituvchining ishini qanday tashkil etish kerak?! Bu mavzuda yozgan Rojdestvenskiy: "O'qituvchilar va talabalar tomonidan xatolarning oldini olish va ularga qarshi qat'iy, murosasiz kurash tildagi akademik muvaffaqiyatsizlik va xatolarning oldini olishning asosiy vositasidir. Xatolarning oldini olish va ularga qarshi kurashning yo'qligi ko'pincha ularning asta -sekin o'sib borishiga va yomon o'qiyotgan o'quvchilarning muvaffaqiyatsizlar toifasiga o'tishiga sabab bo'ladi. Tildagi bo'shliqni oldini olishdan ko'ra uni bartaraf etish ancha qiyin" [9].

"Asosiy qoida, - deb yozadi NS. Pozdnyakov, - o'quvchilarga xato qilishga yo'l qo'ymaslik. O'z sinfini yaxshi biladigan o'qituvchi, o'quvchilarning qaysi biri va qaysi holatda noto'g'ri yozishi mumkinligini oldindan bilishi qiyin emas, shuning uchun qachon, kimdan va nima xatolardan ogohlantirilishi kerakligini biladi". "Til o'qituvchisining ishidagi asosiy printsip, hamma o'qituvchilar singari, xatolarning oldini olish tamoyili bo'lishi kerak" - deb xulosa qiladi K.A. Moskalenko [7].

Grammatic xatolarni bartaraf etishning asosiy usullaridan biri ularning oldini olish tamoyili hisoblanar ekan, bunday holda, dars jarayonida grammatic tahlilni kuchaytirish maqsadida, quyidagi uslubiy texnikadan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. O'quvchilarni uyda matnni mustaqil ravishda tahlil qilishlarini so'rash kerak, keyin ularni sinfda tushunish mumkin, shu o'rinda aynan kelishik qo'shimchalarining qo'llanish tahliliga e'tibor qaratiladi. Grammatic tahlilni o'tkazishning bu usuli tufayli o'quvchilar javoblarining sifati yaxshilanadi va darsda tahlil qilingan material hajmi sezilarli darajada oshadi. Ajratish sxemasini soddalashtirmasdan, deyarli har bir darsda grammatic tahlilga alohida vaqt ajratish va bir yoki ikki so'zni emas, balki ko'proq narsani tahlil qilish maqsadga muvofiqli. Albatta, ba'zi hollarda tanlab tahlil qilish talab etiladi, lekin, qoida tariqasida, talabalar bilan birgalikda o'tilgan grammatic material doirasidagi sxema bo'yicha to'liq tahlilni o'tkazish zarur.

Grammatic xatolarni bartaraf etish yo'lida yana bir muhim nuqta - bu til darslarida so'z boyligi bilan ishslash. So'z boyligi deyilganda faqatgina so'zlarning lug'at shakli emas,

balki maqollar, turg'un birikmalar, frazeologik birliklar nazarda tutiladi. Chunki tilning turg'un birikmalarida kelishik shakllarini ma'lum bir qolip sifatida uchratish mumkin.

Vizualizatsiyaning mavjud barcha shakllaridan sxemalar hozirda eng keng tarqalgan bo'lib, bunda ma'lum bir til muammosi (grammatik, imlo, tinish belgilari va boshqalar) ko'zda tutiladi. Bunday tasvir soddalashtirilgan va umumlashtirilgan shaklda yaratilgan. Vizualizatsiyani ko'z xotirasi demakdir, biror mir material o'quvchiga tarqatiladi, unda kelishiklar ostiga chizib chiqish talab etiladi, Ushbu materiallarni ko'rish orqali so'z birikmalarida kelishiklar qay tariqa ishlatilganligi o'quvchi ko'z ongida saqlanadi.

Fikrlarni xulosalaydigan bo'lsak, asosiysi, mакtab o'quvchilarining morfologik va sintaktik savodxonligi bo'yicha ishlar tilni o'rgatish yillarida maqsadli va tizimli olib borilishi kerak. Kelishiklarning xato qo'llanilishini yozma nutqda bartaraf etish uchun har bir til o'qitvchisining o'z metodi bo'lishi kerak va bu metod sinfning darajasidan kelib chiqqan holatda shakllantiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayev F. Kelishik affikslarining genezisiga doir. «O'zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnali, 5-son, 1961.
2. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tili nazariy grammatikasi (morphologiya). Toshkent, 2002.
3. Rasulov R.O'zbek tilida otlarning turlanishi. Kand.Diss. – M., 1953.
4. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi zamon o'zbek tili, Morfologiya. Samarqand Davlat universiteti, – Samarqand 1960.
5. Ziyoyev I. Kelishik formalarining funksional almashinuviga doir. O'TA, 1966.
6. Капинос В.И. О критериях оценки речи и об ошибках грамматических и речевых. М., 1978.
7. Москаленко К.А. Комментированное письмо. – РЯШ, 1962, №4.
8. Пленкин Н.А. Предупреждение стилистических ошибок на уроках русского языка. М.-Л. 1964.
9. Рождественский Н.С. Методика обучения русскому языку. М., 1965.
10. Цейтлин С.Н. Ошибки в письменной речи учащихся и способы их классификации. – РЯШ, 1984, №2.
11. Черемисин П.Г. К вопросу о классификации речевых ошибок. – РЯШ, 1973, №2